


**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi**

**60411700 - Logistika (agrologistika)**  
**bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining malaka talablari**

**Toshkent**

1



### **ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN:**

- Toshkent davlat agrar universiteti;
- O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi;
- O‘zbekiston Respublikasi fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi

### **TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, professional ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2021 yil «24» 08 dagi 4 - sonli yig‘ilishida ma‘qullangan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2021 yil «25» 08 dagi 365 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

### **JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta‘lim davlat ta‘lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasiga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talabini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r	bet
1. 5232500 - <i>Logistika (agrologistika)</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi .....	4
1.1. Qo'llanish sohasi .....	4
1.1.1. 5232500 - <i>Logistika (agrologistika)</i> ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2. 5232500 - <i>Logistika (agrologistika)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi .....	4
1.2.1. 5232500 - <i>Logistika (agrologistika)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2. 5232500 - <i>Logistika (agrologistika)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari.....	5
1.2.3. 5232500 - <i>Logistika (agrologistika)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4. 5232500 - <i>Logistika (agrologistika)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....	5
2. 5232500 - <i>Logistika (agrologistika)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	7
2.1. Umumiy kompetensiyalar.....	7
2.2. Kasbiy kompetensiyalar.....	8
Bibliografik ma'lumotlar.....	9
Kelishuv varag'i.....	10

## **1. 5232500 - Logistika (agrologistika) bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tasnifi**

**5232500 - Logistika (agrologistika)** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

#### **1.1.1. 5232500 - Logistika (agrologistika) ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talabi **5232500 - Logistika (agrologistika)** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talabning asosiy foydalanuvchilari:**

- mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;
  - ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;
  - bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;
  - ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;
  - oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;
  - oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;
  - kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar

#### **1.2. 5232500 - Logistika (agrologistika) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi**

##### **1.2.1. 5232500 - Logistika (agrologistika) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:**

**5232500 - Logistika (agrologistika) bakalavriat ta'lim yo'nalishi** - Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar" ta'lim sohasiga oid yo'nalish bo'lib, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasidagi yo'nalish bo'lib, u erkin iqtisodiy zonalarda logistik faoliyatni tashkil etish, boshqarish, rejalashtirish, nazorat qilish, marketing kompleksi, erkin iqtisodiy industrial zonalarda, bozorni segmentlash va pozitsiyalashtirish, logistika tizimida tadqiqotlari o'tkazish, korxonalarining marketing strategiyasini ishlab chiqish, tovar, narx, sotish, siljitish, yetkazib berish zanjirini tashkil etish, yangi tovarlarni bozorga kiritish, korxonalarini tashqi bozorlarga chiqish usullari, turli mulkchilik shaklidagi korxonalar va erkin zonalarda logistika faoliyatini rivojlantirish, istiqbolini belgilash majmuasiga yo'naltirilgan usul va vositalar majmuini qamrab oladi.

### **1.2.2. 5232500 - Logistika (agrologistika) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:**

- xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning hulq-atvor, ularning harajatlari va natijalari, harakatdagi bozorlar;

- logistik va axborot oqimlari, ta'lim jarayoniga mos kasb-hunar kollejlaridagi o'quv-tarbiya jarayoni, logistik markazlar, iqtisodiyotning tarmoqlar va sohalar bo'yicha tarmoqlari, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish majmualari;

- logistik iqtisodiy markazlar, assosiasiyalar, korporasiyalar, konsyernlar, xolding, ishlab chiqarish birlashmalarining rivojlantirish asoslari, firma va kompaniyalar, shuningdek, turli mulk shaklidagi korxonalarni boshqarish, ilmiy tadqiqot muassasalari va mahalliy davlat organlarida iqtisodiy faoliyatni ta'minlash hamda ishlab chiqarish, logistik faoliyatni olib boruvchi barcha ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va firmalar: iste'mol tovarlari bozori, xizmatlar bozori, ishlab chiqarish vositalari va resurslar bozori, xalqaro bozorlardagi jarayonlari xisoblanadi.

5232500- *Logistika (agrologistika)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriyat bitiruvchilari pedagogik qayta ishlashdan o'tgandan keyin, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi. Bakalavriyatning kasbiy ta'lim yo'nalishi bundan mustasno.

### **1.2.3. 5232500 - Logistika (agrologistika) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari**

- tashkiliy-boshqaruv;
- ishlab chiqarish-texnologik;
- ilmiy-tadqiqot;
- loyiha- texnologik;
- agrokonsalting;
- tadbirkorlik

### **1.2.4. 5232500 - Logistika (agrologistika) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.**

*5232500 - Logistika (agrologistika)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalar, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavriyat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bolishi lozim:

#### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

- xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatini rejalashtirish, xisob-kitob va tahlil qilish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, huquqiy hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlar;

-rejalashtirish ishlarini tashkil etish;

-xo'jalik yurituvchi sub'ektini xo'jalik-moliyaviy va ishlab chiqarish faoliyati bo'yicha istiqbolli va joriy rejalarni (dasturlarini) ishlab chiqish;

-biznes-rejani ishlab chiqarish;

-reja, hisob-kitob hujjatlarini yuritish;

-moddiy, mehnat va moliyaviy xarajatlar normativini ishlab chiqarish;

-xo'jalik yurituvchi sub'ekt va uning buyruqlari faoliyatini iqtisodiy tahlil hamda hisob-kitob qilish;

-mehnat va ishlab chiqarishni tashkil etish, yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, rasionalizatorlik takliflar va ixtirolar bo'yicha iqtisodiy samaradorlikni aniqlash;

-axborot-kommunikasiya texnologiyalarini olib borish uslublari va vositalaridan foydalanish;

-shartnomalarni tuzish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni to'plash;

-tezkor va statistik hisobotni olib borishni tashkil etish;

-hisobotlarni tuzish tartiblarini aniqlash;

-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni iqtisodiy faoliyatini oqilona tashkil etishda mamlakatimiz va xorijiy tajribasini o'rganish;

-ishlab chiqarish, mehnat va boshqaruvni tashkil etish;

-ishlab chiqarishni texnologik asoslarini bilish;

-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni texnika-iqtisodiy hisob-kitoblar va xo'jalik faoliyati tahlilini olib borishda axborot-kommunikasiya vositalaridan foydalanish;

-mehnatni muhofaza qilish me'yor va qoidalariga amal qilish.

-tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalar faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;

-tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

-tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar echimlarini amaliyotga tatbiq etish;

-tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalar ishlab chiqarish jarayonlarida iqtisodiy va moliyaviy faoliyatni boshqarish;

-fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;

-tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalar ishini tashkil qilish va uni boshqarish;

-bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;

-ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong'in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish .

### **Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:**

- erkin iqtisodiy xududlarda korxonalarining tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlarini rejalashtirish va bajarish;

- EIZ ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarida logistik xizmatini tashkil etish;

- yangi tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning namunaviy texnologik jarayonlarini ishlab chiqish va qo'llash;

- transport tashuvlarida amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

- bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informasion va imitasion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish;

- loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;

- tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarini iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish;

- tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarini biznes- rejasini ishlab chiqish;

- tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalar faoliyatini tahlil qilish;

- amaliyotda axborot texnologiyalarining xalqaro va kasbiy standartlarini qo'llash;

- tarmoqlar va sohalar bo'yicha ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarini raqobat strategiyalarini ishlab chiqish .

### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

- ilmiy tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda ta'lim yo'nalishlaridagi fanlar va ularni o'qitish metodikasiga oid mavzularda tadqiqot olib borish;
- tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarda ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishga qatnashish;
- tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarga tegishli mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-texnika yutuqlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o'rganish;
- tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalaridagi muammolar mavzulari bo'yicha iqtisodiy axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;
- internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;
- ta'lim yo'nalishlaridagi fanlarga oid ilmiy to'plamlar, mahalliy va chet el ilmiy tadqiqot yutuqlarini o'rganish;
- ilmiy tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertyzasini amalga oshirishda qatnashish;
- ma'lumotlarni jamlaydi, qayta tayyorlaydi, mavzu bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish;
- tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etish;
- ilmiy muammolar echimi natijalarini amaliyotga joriy etish.

### **Loyiha – texnologik faoliyatida:**

- tegishli bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;
- faoliyat natijalarini tahlil va sintez qilish, tashkil etish va rejalashtirish, baholash, fundamental, umumkasbiy va amaliy bilimlardan foydalanish qobiliyati va ularga tayyorgarlik;
- mustaqil ishlash qobiliyati, ish jarayonlarini identifikatsiyalash va modellashtirish, boshqarish va sifatini yaxshilash uchun bilim va mahoratdan foydalanish;
- loyihaviy va dasturiy xujjatlarni ishlab chiqish;
- amaliyotda axborot texnologiyalarining xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy uslublarini, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda *qo'llash*.

### **Agrokonsalting faoliyati:**

- davlat va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyasini boshqarish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlarni bilishi va ulardan o'z faoliyatida foydalana olish;
- qishloq xo'jaligi korxonalarini biznes-rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- ASM tarkibidagi tarmoq va korxonalarda marketing tadqiqotlarini o'tkazish;
- qishloq xo'jaligi sub'ektlari faoliyati samaradorligini baholashda moliyaviy ko'rsatkichlarni hisoblash usullarini qo'llash;
- ASM tarkibidagi tarmoq va korxonalarining iqtisodiy barqarorligini oshirish va uni rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqish.
- ilg'or tajribalar va fan yutuqlari to'g'risida ma'lumotlar izlash va ularni umumlashtirish hamda ommalashtirish.

### **Tadbirkorlik faoliyatida:**

- yangi biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish;
- biznesni tashkil etish, biznes-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

## **2. 5232500 - Logistika (agrologistika) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

### **2.1. Umumiy kompetensiyalar:**

- dunyoqarash bilan bog'liq tizimli bilimlarga ega bo'lishi; gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;
- fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilishi, O'zbekistonning rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga;
- dunyoqarash bilan bog'liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo'lishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatida ularni hisobga olib bilishi;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda xayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilishi;
- axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;
- tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida ilmiy tassavvur hamda e'tiqodga, o'zini jismoniy chiniqtirish uquv va ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.

### **2.2. Kasbiy kompetensiyalar:**

- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, kadrlarni boshqarish strategiyasini qo'llash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn aloqalarni amalga oshirishni bilish;
- strategik va operasion boshqaruv vazifalarini, ishni tashkil qilish, boshqarishning zamonaviy texnologiyalarini, xodimlar jamoasiga etakchilik qilishni bilish;
- strategik tahlil qilish, raqobatdoshlikni ta'minlashga qaratilgan tashkilot strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- loyihalar, biznes-rejalar va shartnomalarni shakllantirish hamda boshqarish, ijrochilar faoliyatini muvofiqlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- boshqaruv qarorlarini qabul qilishda, ularni aniq boshqaruv vazifalariga moslashtirish orqali iqtisodiy, moliyaviy va tashkiliy-boshqaruv modellarini shakllantirishda miqdoriy va sifatli tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli shaxslar egallashi lozim bo'lgan lavozimlarda mustaqil ishlashga;
- tegishli bakalavriat yo'nalishi doirasida tanlangan mutaxassislik bo'yicha magistraturada oliy ta'limni davom ettirishga;
- kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida qo'shimcha kasb ta'limi olish uchun tayyorlanadilar.

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### **Tayanch so'zlar:**

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturlari, profil, uqib-o'rganish natijalari, o'quv davri logistika, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestasiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni.

